

AYOLLAR JINOYATCHILIGI VA UNING OLDINI OLISHDA IJTIMOIIY PROFILAKTIKANING O'RNI

Gadoymirodov Bekzod Obidjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Zayniddinov Orzubek Zayniddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi kursanti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.11.2025

Revised: 19.11.2025

Accepted: 20.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Ayollar
jinoyatchiligi,
ijtimoiy profilaktika,
gender tenglik,
mahalla tizimi, xotin-
qizlar faoli, ijtimoiy-
iqtisodiy omillar*

Mazkur maqolada ayollar jinoyatchiligining sabablari, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Ayollar jinoyatchiligini oldini olishda mahalla tizimi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektorining hamkorlikdagi faoliyati muhim o'rin tutishi yoritilgan. Shuningdek, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda ta'lim, bandlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash siyosatlarining ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarga bo'lgan yuksak e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida bugungi kunda ayollarimizning jamiyatdagi mavqei oshdi.

Ularning jamiyatdagi faolligini oshirib, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Zero, gender tenglikka erishish barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Ayollarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biridir.

Darhaqiqat, ijtimoiy xavfli hodisa bo'lgan jinoyatchilik barcha davrlarda jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy ustqurmalariga shikast yetkazadi. Ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilishi esa ushbu jarayonni ikki karra tezlashtiradi. Chunki har bir ayol u jamiyatda qanday vazifani bajarmasin, avvalo, ona – oilaning ma'naviy tarbiyachisi hisoblanadi. Ayolning jinoyat sodir etishi ortida jamiyatning ma'naviy tanazzuli yotadi.

Ayollar jinoyatchiligi deganda ayollar tomonidan ma'lum vaqt va makonda sodir etilgan jinoyatlar majmui tushuniladi. Ayollar jinoyati umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismi sifatida tarixan o'zgaruvchan hodisadir. U faqat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu ayolning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va uning psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Ayollar jinoyatchiligini yuzaga keltiruvchi jiddiy qarama-qarshiliklardan biri bu ayollarning mehnat, kasbiy faoliyatda faol ishtirok etishga bo'lgan ehtiyojlar, moddiy muammolarning zimmasiga tushishi, mehnat bozorida gender stereotiplari mavjudligi va nomutanosiblikdir.

Jinoyat sodir etuvchi ayollarning psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozim, chunki uning atrof-muhit bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot tarzi va oilaviy turmush sharoiti jinoyat sodir etishda katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy shart-sharoitlar jinoiy qilmishda o'z aksini topadi va shaxsning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda ayollar tomonidan jinoyatlarning sodir etilishiga asosan ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo'lmoqda.

Ushbu omillarni o'rganish va bu omillar ta'siriga tushib qolgan xotin-qizlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, ayollar tomonidan jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabr kuni “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 801-son qarorning qabul qilinishi, mahallalarda profilaktika inspektori tomonidan tayyorlangan xulosa asosida quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun axborot tizimi orqali tegishliligi bo'yicha ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi xotin-qizlar faoliga yuboriladi:

- ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar;
- yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar;
- muntazam tazyiq va zo'rvonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar.

Ushbu qarorga asosan, xotin-qizlar faoli;

ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazadi, nizolarning sabablarini aniqlaydi, ular bartaraf etish maqsadida mahalla raisi bilan hamkorlikda «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat» tamoyillarini tushuntiradi, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishni ijtimoiy xodim bilan birgalikda tashkil etadi;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazib, turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti hamda kasbiy layoqatini o'rganadi, ularni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qilish, zarur hollarda ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish choralarini ko'radi;

muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlarning xonadoniga borib, turmush tarzi, xulq-atvori va oilaviy sharoitini o'rganadi, aniqlangan muammolarini bartaraf etish choralarini ko'radi, zarur hollarda muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan shaxslarga himoya orderini berish bo'yicha profilaktika inspektoriga taklif kiritadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan xotin-qizlarning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti va kasbiy layoqatini o'rganadi, ular bilan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshiradi, hokim yordamchisi bilan hamkorlikda bandligini ta'minlash choralarini ko'radi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari tomonidan ayollar jinoyatchiligining oldini olish maqsadida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasining to'rtta turini o'z vaqtida qo'llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa maxsus va yakka tartibdagi profilaktikani qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishiladi.

Ayollar jinoyatchiligining maxsus profilaktikasi –huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning mavsumiy yoki kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, respublikada, mintaqada yoki shahar-tuman miqyosida yoxud alohida kichik hudud va obyektida ayollar jinoyatchiligining profilaktikasini amalga oshirish, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga

mo'yl bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan ayollarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat tushuniladi.

Jinoyatchi ayollar sonining ko'payishining mumkin bo'lgan sabablaridan biri shundaki, ijtimoiy rollarning o'zgarishi va texnologik taraqqiyot ayollarni uydan ozod qilgan va uy xo'jaligining chegaraviy qiymatini pasaytirgan. Ayollarning bandligi va ish haqiga kelsak, ularning ayollar jinoyatchiligiga ta'siri noaniq. Hali sinovdan o'tmagan bir nazariya shundaki, ish haqining nisbiy tengsizligi nafaqat ish haqining farqi emas, balki muhimdir. So'nggi o'n yilliklarda nisbiy ish haqi tengsizligi erkaklarnikiga qaraganda ayollar uchun ko'proq o'sib bormoqda, bu esa ish haqi taqsimotining past qismida ko'proq ayollarni jinoyat sodir etishga undagan bo'lishi mumkin. Ta'limning jinoyatga ta'siri kattaligidagi farqlar ham jinoyatlarda ishtirok etishdagi gender tafovutining qisqarishiga yordam berdi. Nihoyat, sud tizimi ayollarga nisbatan erkaklarga nisbatan yumshoqroq bo'lib, jinoyat bozorida ayollarga ustunlik beradi.

Ushbu topilmalar siyosatchilar mehnat bozoridagi gender tafovutlarini toraytiruvchi ijobiy o'zgarishlar va ijtimoiy rollardagi ijobiy o'zgarishlar ayollarni jinoyatchilikda ishtirok etishga undagan bo'lishi mumkinligini hisobga olishlari kerakligini ko'rsatadi. Ayollar ta'limini rag'batlantirish kabi malakali va malakasiz ayol ishchilar o'rtasidagi ish haqi tafovutini kamaytirishga yordam beradigan siyosatlar kam ta'minlangan ayollarni jinoiy faoliyatga kirishishdan to'xtatib qo'yishi mumkin. Nihoyat, nikoh va farzand ko'rishning past darajasi ayollarni ko'proq jinoyatga undashi mumkin, shuning uchun nikoh va farzand ko'rishni rag'batlantiradigan oilani qo'llab-quvvatlash siyosati ayollarning jinoiy faoliyatini ham kamaytirishi mumkin.

Huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish, ularning sabab va sharoitlarini aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish, bartaraf etish, o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududlardagi oilalarda ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish borasida jamoat tuzilmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun fuqarolik jamoat tuzilmalari a'zolari keng jamoatchilik bilan o'zaro mustahkam hamkorlikni tashkil etishlari talab etiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. А. Аллаев ва Г. Ялгашев. Нега аёллар жиноятга қўл уради ёхуд улар томонидан содир этилаётган жиноятлар таҳлили. <https://navoiy.sud.uz/>;

2. Н.М.Эгамбердиева. Аёллар жиноятчилиги ва унинг профилактикаси. Chrome extension://efaidnbmnn nibpcajpcgl

clefindmkaj/https://oilamalaka.uz/wpcontent/uploads/2024/05/zhinoyatchi-ayollar_2024.pdf;

3. Campaniello, N. Women in crime. IZA World of Labor 2019: 105 doi: 10.15185/izawol.105.v2;

4. Курбанов Мансур Нарбутаевич. Муқаддам судланган шахслар ўртасида амалга оширилادиган махсус профилактикасини такомиллаштириш масалаларига оид фикр мулоҳазалар // сажар. 2024. №12. url: <https://cyberleninka.ru/article/n/mu-addam-sudlangan-shahslar-rtasida-amalga-oshiriladigan-mahsus-profilaktikasini-takomillashtirishasala>

lariga-oid-fikr-mulo (дата обращения: 12.11.2025);

5. Дилмурод Утепов. Профилактика инспекторларининг оила-турмуш доирасида содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг виктимологик профилактикаси бўйича фаолияти // сажмрмс. 2025. №4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/profilaktika-inspektorlarining-oila-turmush-doirasida-sodir-etiladigan-u-u-buzarliklarning-viktimologik-profilaktikasi-b-yicha> (дата обращения: 12.11.2025);

6. Гадоймиров, Б., & Ўзоқбоев, Ш. (2024). Вояга етмаганлар ўртасида содир этилаётган жиноятлар тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари. Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане, 1(1), 9–15. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ensuring-womens-rights/article/view/36679>.

